O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

MADANIY QO‘ZIQORINLAR MARKETINGI VA TIJORAT SIFAT NAZORATI

(FFV-24:2023, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti

Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #E1GO7EHSE2 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan ISHLAB CHIQILDI.

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 18-avgustdagi 30/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan TASDIQLANDI.

3 Ushbu standart FFV-24:2023 “Marketing and commercial quality control of cultivated mushrooms” xalqaro standartning matni bilan aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standartni va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish, qayta ko‘rib chiqish yoki bekor qilish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarda chop etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishli

STANDARTLAR INSTITUTI #E1GO7EHSE2 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Izoh

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifat standartlari bo‘yicha ishchi guruh

BMTning UNECE Iqtisodiy komissiyasi huzuridagi Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruh tomonidan ishlab chiqilgan tovar sifatiga oid standartlar xalqaro savdoni yengillashtirishga, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni rag‘batlantirishga, rentabellikni oshirishga hamda iste’molchilar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

UNECE standartlaridan hukumatlar, ishlab chiqaruvchilar, savdo tashkilotlari, import qiluvchilar, eksport qiluvchilar va boshqa xalqaro tashkilotlar foydalanadi. Ushbu standartlar yangi meva va sabzavotlar, quruq va quritilgan mahsulotlar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesilgan gullar, tuxum va tuxum mahsulotlarini o‘z ichiga olgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining keng doirasini qamrab oladi.

BMTga a’zo bo‘lgan har qanday davlat Ishchi guruh faoliyatida teng huquqli asosda ishtirok etishi mumkin. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga oid standartlar haqida qo‘shimcha ma’lumot olish uchun UNECEning rasmiy veb-saytiga murojaat qilinadi.

Yetishtiriladigan qo‘ziqorinlarga oid mazkur qayta ko‘rib chiqilgan standart ECE/TRADE/C/WP.7/GE.1/2010/10 va ECE/TRADE/C/WP.7/2012/8 hujjatlari asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, Ishchi guruhning oltmish oltinchi va oltmish sakkizinchi sessiyalarida ko‘rib chiqilgan hamda qabul qilingan.

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarining biridan foydalanish tavsiya etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #E1GO7EHSE2 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

MADANIY QO‘ZIQORINLAR MARKETINGI VA TIJORAT SIFAT NAZORATI

МАРКЕТИНГ И КОНТРОЛЬ КОММЕРЧЕСКОГО КАЧЕСТВА КУЛЬТИВИРУЕМЫХ ГРИБОВ

MARKETING AND COMMERCIAL QUALITY CONTROL OF CULTIVATED MUSHROOMS

Amalga kiritish sanasi: 01.09.2026-yil

I. Mahsulot ta’rifi

Ushbu standart iste’molchiga yangi uzilgan holda yetkazib beriladigan chirindilarda yetishtirilgan Agaricus (syn. Psalliota)[1] oilasiga mansub shtammlardan (madaniylashtirilgan) yetishtirilgan qo‘ziqorinlarga taalluqli bo‘lib, sanoatda qayta ishlash uchun mo‘ljallangan qo‘ziqorinlarni istisno qiladi.

Madaniy qo‘ziqorinlar quyidagi tijorat turlariga ajratiladi, ular esa o‘z navbatida ikki guruhga bo‘linadi:

- kesilmagan qo‘ziqorinlar- poyasining pastki qismi kesilmagan;
- kesilgan qo‘ziqorinlar-poyasining pastki qismi kesilgan.

Har ikkala guruhda ham rivojlanish bosqichlari o‘zaro farqlanadi:

- yopiq qo‘ziqorinlar — qalpoqchasi to‘liq yopiq bo‘lgan qo‘ziqorinlar;
- pardali qo‘ziqorinlar — qalpoqchasi bandi bilan parda orqali tutashgan qo‘ziqorinlar;
- ochiq qo‘ziqorinlar — qalpoqchasi ochilgan qo‘ziqorinlar (qalpoqchasi ochiq yoki yassi bo‘lib, qalpoqcha chetlari biroz pastga qayrilgan bo‘lishi kerak);
- yassi qo‘ziqorinlar — to‘liq ochilgan qo‘ziqorinlar (bunda qalpoqcha chetlari haddan tashqari ichkariga bukilgan yoki tashqariga qayrilgan bo‘lmasligi kerak).

Yetishtiriladigan qo‘ziqorinlar rangiga ko‘ra ham ikki guruhga tasniflanadi:

- “oq”;
- “jigarrang” yoki “kashtanrang”.

II. Sifatga oid talablar

Standartning maqsadi madaniy qo‘ziqorinlarni tayyorlash va qadoqlashdan so‘ng ularning sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

Biroq, mahsulotlar eksport/jo‘natishdan keyingi bosqichlarda qo‘llanilsa, standart talablariga nisbatan ularda quyidagi ko‘rsatkichlar belgilanishini ko‘zda tutish kerak:

- barralik va taranglikning biroz pastligi;

[1] Biroq V-bobning A bandida (“Bir xillik”) belgilangan aralash qadoqlarda Agaricus turkumiga mansub bo‘lmagan yetishtiriladigan qo‘ziqorinlar ham eng kam talablarga muvofiq bo‘lishi kerak.

Rasmiy nashr

STANDARTLAR INSTITUTI #E1GO7EHSE2 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

- “Oliy” sinfidan boshqa sinflarda mansub bo‘lgan mahsulotlar uchun ularning rivojlanishi va nobud bo‘lishiga moyilligi tufayli tashqi ko‘rinish sifatini biroz pasayishi.

Mahsulot egasi/sotuvchi ushbu standart talablariga muvofiq bo‘lmagan mahsulotlarni namoyish etishi, sotuvga taklif qilishi, yetkazib berishi yoki boshqa usulda muomalaga kiritishi mumkin emas. Mahsulotni egasi/sotuvchi ushbu talablarga rioya etilishi uchun javobgar hisoblanadi.

A. Minimal talablar

Barcha sinflarda, har bir sinf uchun maxsus qoidalar va ruxsat etilgan me’yoriy cheklovlarni hisobga olgan holda, yetishtiriladigan qo‘ziqorinlar:

- kesilgan qo‘ziqorinlar; poyasining pastki qismining kesilgan joy toza bo‘lishi kerak;
- sog‘lom bo‘lishi kerak; chirigan, poyasi qattiq qoraygan yoki iste’molga yaroqsiz darajada sifati buzilgan mahsulotlar qabul qilinmaydi;
- toza, o‘g‘itlar (tuproq) tashqari ko‘zga ko‘rinadigan har qanday begona moddalardan deyarli xoli;
- tashqi ko‘rinishi yangi bo‘lishi, nav va/yoki tijorat turiga xos bo‘lgan qalpoqcha osti plastinkalar rangini hisobga olish kerak;
- zararkunandalardan deyarli xoli bo‘lishi kerak;
- zararkunandalar yetkazgan zararlardan deyarli xoli bo‘lishi kerak;
- sirtida ortiqcha namlik bo‘lmasligi kerak;

Madaniy qo‘ziqorinlarning rivojlanishi va holati shunday bo‘lishi kerakki, ular:

- tashish va yuklash-tushirish ishlariga chidamli bo‘lishi;
- belgilangan manzilga talabga javob beradigan holatda yetib borishi.

B. Tasniflash

Madaniy qo‘ziqorinlar quyida ta’riflanganidek uchta sinfga tasniflanadi:

(i) “Oliy” sinf

Bu sinfga mansub madaniy qo‘ziqorinlar yuqori sifatli bo‘lishi lozim. Ular o‘zining tijorat turiga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi shart. Ular yaxshi shakllangan bo‘lishi kerak.

Madaniy qo‘ziqorinlar deyarli to‘liq o‘g‘tlardan tozalangan bo‘lishi shart; kesilmagan qo‘ziqorinlarning poyasida esa o‘g‘tlar izlarining qoldiqlari bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi.

Kesilgan qo‘ziqorinlar poya o‘qiga deyarli perpendikulyar tarzda kesilgan bo‘lishi kerak.

Mahsulotning umumiy tashqi ko‘rinishiga, sifatiga, saqlanuvchanligiga va qadoqdagi taqdim etilishiga ta’sir qilmaydigan juda kichik yuzaki nuqsonlardan tashqari, qo‘ziqorinlarda nuqsonlar bo‘lmasligi kerak.

ii) I sinf

Bu sinfdagi madaniy qo‘ziqorinlar sifatli bo‘lishi kerak. Ular tijorat turiga xos bo‘lishi kerak.

Kesilgan qo‘ziqorinlar poya o‘qiga deyarli perpendikulyar tarzda kesilgan bo‘lishi kerak.

Mahsulotning umumiy tashqi ko‘rinishiga, sifatiga, saqlanuvchanligiga va qadoqdagi taqdim etilishiga ta’sir qilmasligi sharti bilan quyidagi kichik nuqsonlarga yo‘l qo‘yiladi:

- shaklining biroz buzilishi;

STANDARTLAR INSTITUTI #E1GO7EHSE2 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

- rangidagi kichik nuqsonlar;
- yuzasining biroz ezilishi;
- poyasidagi juda oz miqdordagi ichki namlik;
- o‘g‘tlarining (tuproqning) yengil izlari bo‘lishi; kesilmagan qo‘ziqorinlarning poyasida ham bir oz o‘g‘tlarining (tuproqning) izlari bo‘lishi mumkin.

iii) II sinf

Bu sinfga yuqori sinflarga kiritish mumkin bo‘lmagan, lekin yuqorida ko‘rsatilgan minimal talablarga javob beradigan madaniy qo‘ziqorinlar kiradi.

Madaniy qo‘ziqorinlarning sifati, saqlanish sifati va ko‘rinishi bo‘yicha asosiy xususiyatlarini saqlab qolish sharti bilan quyidagi nuqsonlarga yo‘l qo‘yilishi mumkin:

- shaklidagi nuqsonlar;
- rangidagi nuqsonlar;
- yengil ko‘karishlar;
- poyaning yengil shikastlanishi;
- poyaning biroz ichki namligi;
- qalpoqcha osti plastinkalar rangsizlanishi;
- ichi g‘ovak poyalar;
- o‘g‘tlarining (tuproqning) yengil izlari qoldiqlari; butun qo‘ziqorinlarning bandida ham bir oz bo‘lishi mumkin.

III. O‘lchamlarga oid talablar

O‘lcham qalpoqchaning maksimal diametri va poyaning uzunligi bo‘yicha quyidagi xususiyatlarga muvofiq aniqlanadi. Poyaning uzunligi quyidagicha o‘lchanadi:

- ochiq va yassi qo‘ziqorinlarda qalpoqcha ostidagi plastinkalardan;
- yopiq va pardali qo‘ziqorinlarda pardadan boshlab o‘lchanadi.

Eng kichik o‘lcham:

- qalpoqchasi yopiq, pardali va ochiq qo‘ziqorinlar uchun — 15 mm;
- yassi qo‘ziqorinlar uchun — 20 mm bo‘lishi kerak.

O‘lchamlarning bir xilligini ta’minlash uchun bitta qadoqdagi mahsulotlar o‘lchamlari orasidagi farq quyidagi qiymatlardan oshmasligi kerak:

a) Yopiq, pardali va ochiq qo‘ziqorinlar

Qalpoqcha diametri		**Bandining maksimal uzunligi**	
O‘lchami	**O‘lcham chegaralari**	**Kesilgan qo‘ziqorinlar**	**Kesilmagan qo‘ziqorinlar**
Kichik	15 – 45 mm	Qopqoq diametrining 1/2 qismi	Qopqoq diametrining 2/3 qismi
O‘rta	30 – 65 mm		
Yirik	50 mm va undan ortiq		

STANDARTLAR INSTITUTI #E1GO7EHSE2 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

b) Yassi qo‘ziqorinlar

Qalpoqcha diametri		Bandining maksimal uzunligi	
O‘lchami	**O‘lcham chegaralari**	**Kesilgan qo‘ziqorinlar**	**Kesilmagan qo‘ziqorinlar**
Kichik	20 – 55 mm	Qopqoq diametrining 2/3 qismi	Qopqoq diametrining 2/3 qismi
Yirik	50 mm va undan ortiq		

“Oliy” sinfidagi madaniy qo‘ziqorinlar uchun o‘lchamlarning bir xilligi majburiy hisoblanadi. I va II sinflarda yetishtiriladigan qo‘ziqorinlarda “kichik”, “o‘rta” yoki “yirik” kattaliklari ko‘rsatilgan bo‘lsa, ular belgilangan o‘lcham chegaralariga muvofiq bo‘lishi kerak.

IV. Cheklangan me’yorlarga oid qoidalar

Savdoning barcha bosqichlarida ko‘rsatib o‘tilgan sinf talablariga javob bermaydigan mahsulotlar uchun har bir to‘pda sifat va o‘lcham bo‘yicha me’yorlardan chetga chiqishlarga yo‘l qo‘yiladi[2].

A. Sifat bo‘yicha yo‘l qo‘yiladigan chetlanishlar

i) «Oliy» sinf

Mazkur sinf talablariga javob bermaydigan, lekin I sinf talablariga mos keladigan madaniylashtirilgan qo‘ziqorinlarning umumiy miqdorining 5 foizigacha (dona yoki og‘irligi bo‘yicha) bo‘lishiga ruxsat etiladi. Ushbu me’yor doirasida mahsulot umumiy miqdorining 0,5 foizdan ko‘p bo‘lmagan qismi II sinf talablariga javob berishi mumkin.

ii) I sinf

Sinf talablariga javob bermaydigan, ammo II sinf talablariga javob beradigan madaniy qo‘ziqorinlarning soni yoki vazn miqdori bo‘yicha 10 foizlik chetlanishga ruxsat etiladi. Ushbu ruxsat etilgan me’yor doirasida umumiy miqdorning ko‘pi bilan 1 foizi II sinf sifat talablariga ham, minimal talablarga ham javob bermaydigan mahsulotlardan yoxud chirigan mahsulotlardan iborat bo‘lishi mumkin.

iii) II sinf

Sinf talablariga ham, eng kam talablarga ham javob bermaydigan yetishtirilgan qo‘ziqorinlar umumiy miqdorining 10 foizigacha (soni yoki og‘irligi bo‘yicha) bo‘lishiga yo‘l

---

[2] Muvofiqlikni tekshirish birlamchi yoki birlashtirilgan namunalarni baholash yo‘li bilan amalga oshiriladi. Tekshirish tasodifiy tanlab olingan namunalar sifati mahsulot partiyasining umumiy sifatini ifodalaydi, degan faraz tamoyiliga asoslanadi. Jo‘natish bosqichida, shuningdek ulgurji savdo va taqsimlash markazlarida hamda oziq-ovqat mahsulotlari chakana savdosi omborxonalarida, shu jumladan xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ham, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD) muvofiqlikni tekshirish bo‘yicha amaliy qoidalarini qo‘llash tavsiya etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #E1GO7EHSE2 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

qo‘yiladi. Ushbu yo‘l qo‘yiladigan me’yor doirasida umumiy miqdorning 2 foizidan ko‘p bo‘lmagan qismi chirigan mahsulotlardan iborat bo‘lishi mumkin.

B. Rivojlanish bosqichi ko‘rsatilgan hollar uchun maxsus cheklanishlar

	Yopiq qo‘ziqorinlar	Pardali qo‘ziqorinlar	Ochiq qo‘ziqorinlar
“Oliy” sinf	Soni yoki massasi bo‘yicha 5 % pardali qo‘ziqorinlar bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi	Soni yoki massasi bo‘yicha 5 % ochiq qo‘ziqorinlar bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi	Soni yoki massasi bo‘yicha 5 % yassi qo‘ziqorinlar bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi
I sinf	Soni yoki massasi bo‘yicha 10 % pardali qo‘ziqorinlar bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi	Soni yoki massasi bo‘yicha 10 % ochiq qo‘ziqorinlar bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi	Soni yoki massasi bo‘yicha 10 % yassi qo‘ziqorinlar bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi
II sinf	Soni yoki massasi bo‘yicha 25 % pardali yoki ochiq qo‘ziqorinlar bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi	Soni yoki massasi bo‘yicha 25 % ochiq qo‘ziqorinlar bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi	Soni yoki massasi bo‘yicha 25 % yassi qo‘ziqorinlar bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi

C. O‘lchamga oid cheklangan og‘ishlar

Barcha sinflar uchun (agar saralangan bo‘lsa): saralash talablariga javob bermaydigan yetishtirilgan qo‘ziqorinlarning umumiy miqdori soni yoki vazni bo‘yicha 10 foizdan oshmasligiga yo‘l qo‘yiladi.

V. Taqdim etishga doir talablar

A. Bir xillik

Har bir qadoqdagi mahsulot bir xil bo‘lishi hamda faqat kelib chiqishi tijorat turi, sifati va o‘lchami (agar o‘lchamlangan bo‘lsa) bir xil bo‘lgan madaniy qo‘ziqorinlardan tashkil topishi kerak.

Biroq, sifati bir xil va har bir rang va/yoki turning kelib chiqishi bir xil bo‘lsa, ranglari va/yoki turlari bir-biridan yaqqol farq qiladigan madaniy qo‘ziqorinlar aralashmasi hamda Agaricus turkumiga mansub bo‘lmagan boshqa qo‘ziqorinlar bitta savdo idishiga birga qadoqlanishi mumkin. Biroq, bu aralashmalarda o‘lchamlarning bir xilligi talab etilmaydi.

Qadoq tarkibining ko‘rinib turgan qismi uning butun tarkibiga mos bo‘lishi kerak.

B. Qadoqlash

Madaniylashtirilgan qo‘ziqorin mahsulotni yaxshi himoya qiladigan tarzda qadoqlanishi kerak.

Qadoq ichida ishlatiladigan materiallar toza va mahsulotga tashqi yoki ichki zarar yetkazmaydigan darajada sifatli bo‘lishi kerak. Savdoga oid ma’lumotlar tushirilgan materiallardan, xususan qog‘oz yoki tamg‘alardan foydalanishga, bosma yozuvlar yoki yorliqlar zaharli bo‘lmagan bo‘yoq yoxud yelim yordamida tushirilgan bo‘lishi sharti bilan, yo‘l qo‘yiladi.

Qadoqlarda barcha begona moddalar, shu jumladan ortiqcha qoplama materiali bo‘lmasligi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #E1GO7EHSE2 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

VI. Tamg‘alashga oid talablar

Har bir qadoqda[3] quyidagi ma’lumotlar qadoqning bir tomonida guruhlangan holda, aniq o‘qiladigan, o‘chmaydigan tarzda va tashqaridan ko‘rinadigan qilib ko‘rsatilishi kerak.

A. Identifikatsiyalash

Qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi/eksport qiluvchi:

Nomi va haqiqiy manzili (masalan, ko‘cha, shahar, hudud, pochta indeksi hamda kelib chiqish mamlakatidan farq qilsa, mamlakat nomi) yoki bunday tizimni qo‘llaydigan mamlakat UNECEning kod belgilar reyestriga[5] kiritilgan bo‘lsa, milliy vakolatli organ tomonidan rasman tan olingan kod belgisi[4] ko‘rsatilishi kerak.

Ko‘cha manzili mavjud bo‘lmagan hollarda haqiqiy manzil xo‘jalik yoki ishlab chiqarish obyektining nomi, eng yaqin qishloq yoki shahar, hudud va pochta indeksidan iborat bo‘lishi mumkin. Shuningdek, GPS koordinatalari va abonent qutisi manzili eng yaqin shahar, hudud hamda mamlakat nomi bilan birgalikda haqiqiy manzil sifatida qabul qilinadi.[6]

B. Mahsulotning xususiyati

Qadoq tarkibi tashqaridan ko‘rinmasa:

- “Madaniy qo‘ziqorinlar”;
- “Kesilgan” yoki “kesilmagan”;
- agar rangi “oq” bo‘lmasa;
- Agaricus turidan boshqa, bir-biridan aniq farq qiluvchi ranglar va/yoki turlarga mansub qo‘ziqorinlar aralashmasi uchun “Madaniy qo‘ziqorinlar aralashmasi” yozuvi yoki unga teng boshqa nom ishlatiladi. Agar mahsulot tashqi tomondan ko‘rinmasa, uning rang(lar)i va/yoki tur(lar)i ko‘rsatilishi kerak.

C. Mahsulotning kelib chiqishi

- Kelib chiqish mamlakati[7] hamda ixtiyoriy ravishda yetishtirilgan hudud yoki milliy, mintaqaviy yoxud mahalliy joy nomi;
- Turli mamlakatlardan keltirilgan va rangi va/yoki turi (Agaricus turidan tashqari) aniq farqlanadigan madaniy qo‘ziqorinlar aralashmasi sotilgan taqdirda, har bir rang va/yoki turning nomi yonida uning kelib chiqqan mamlakati ko‘rsatilishi shart.

---

[3] Tamg‘alashga doir mazkur talablar ushbu ma’lumotlar ko‘rsatilgan tashqi qadoqlarga joylangan savdo qadoqlariga nisbatan qo‘llanilmaydi. Biroq ular alohida taqdim etiladigan savdo qadoqlariga (oldindan qadoqlangan mahsulotlarga) nisbatan qo‘llaniladi.

[4] Ayrim mamlakatlarning milliy qonunchiligida nomi va manzilini to‘liq ko‘rsatish talab etiladi. Biroq kod belgisi qo‘llanilgan hollarda «qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi» yozuvi yoki unga teng qisqartma kod belgisi bilan bevosita bog‘liq tarzda ko‘rsatilishi kerak. Agar kod belgisini tan olgan mamlakat mahsulot kelib chiqqan mamlakatdan farq qilsa, kod belgisidan oldin ushbu mamlakat yoki hududning ISO 3166 bo‘yicha ikki harfli kodi (alpha-2) ko‘rsatilishi kerak.

[5] Qarang: http://www.unece.org/trade/agr/codemarkregistry.html.

[6] Amerika Qo‘shma Shtatlari abonent qutisi manzilidan foydalanish yuzasidan o‘z e’tirozini bildirgan, chunki bunday manzil ishlab chiqarish obyektini inspeksiya qilish yoki mahsulotni qaytarib olish zarurati yuzaga kelganda tezkor choralar ko‘rish imkonini bermasligi mumkin. Shuningdek, abonent qutisi manzili ushbu mamlakatning qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi/eksport qiluvchiga oid milliy tamg‘alash talablarining bir qismi hisoblanmaydi.

[7] Mamlakatning to‘liq yoki keng qo‘llaniladigan nomi ko‘rsatilishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #E1GO7EHSE2 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

D. Tijoriy tavsiflari

- Sinf;
- O‘lchami bo‘yicha saralangan bo‘lsa, qalpoqcha diametrining eng kichik va eng katta qiymatlari yoki “kichik”, “o‘rta” yoxud “yirik” atamalari bilan ifodalangan o‘lchami;
- Rivojlanish bosqichi (ixtiyoriy).

E. Rasmiy nazorat belgisi (ixtiyoriy)

1970-yilda qabul qilingan.

Oxirgi marta 2012-yilda qayta ko‘rib chiqilgan.

2023-yilgi standart tijoratga moslashtirilgan.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD) Meva va sabzavotlarga oid xalqaro standartlarni qo‘llash sxemasi mazkur standartni qo‘llash bo‘yicha tasvirli tushuntirish risolasini nashr etgan. Ushbu nashrni OECD kitob do‘konidan olish mumkin: www.oecdbookshop.org.

STANDARTLAR INSTITUTI #E1GO7EHSE2 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI